

LI MUNYOL IJODIDA ZO‘RAVONLIK MASALASINING BADIY TALQINI

Karimov Nodirbek Shuhrat o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
Email: nodirbekkarimov1995@gmail.com

Annotatsiya: XX asrda yashab ijod qilgan Li Munyol mamlakat tarixida juda ham ko‘p voqealarga guvoh bo‘ldi: mustabid tuzum tazyiqi (yapon anneksiyasi), mafkuraviy kurash (fuqarolar urushi), kaos (bo‘shliq), harbiy boshqaruv yillari. Fuqarolar urushidan keyingi kaos (bo‘shliq), harbiy boshqaruv tizimi jamiyat hayotida, xalq ongida tub burilishlar uchun zamin yaratdi. XX asrning 80-yillari koreys jamiyatida harbiy boshqaruvning ayni avj olgan pallasi bo‘lib, xalq demokratiya – yangi tuzum uchun kurashishga tayyor edi. Ammo, ma’lum tizimga ko‘nikkan jamiyatda tartibsizliklar, loqaydlik ayrim yoshlar hayotining mazmuniga aylandi.

Kalit so‘zlar: yopiq makon, poyezd, vagon, kupe, askar, qo‘riqchi, mehribonlik uyi, mavhum orol

Аннотация: Ли Мун Ель, который жил и работал в XX веке стал свидетелем многих событий в истории страны: угнетение авторитарного режима (японская аннексия), идеологическая борьба (гражданская война), kaos (беспорядок), годы военного правления. Хаос (беспорядок) после гражданской войны, система военного управления заложили основу для радикальных поворотов в жизни общества, в сознании народа. 80-е годы XX века были тем самым пиком военного правления в корейском обществе, когда народ был готов бороться за демократию - новый режим. Однако в обществе, привыкшем к определенной системе беспорядков, апатия стала смыслом жизни некоторых молодых людей.

Ключевые слова: закрытое пространство, поезд, вагон, купе, солдат, охранник, детский дом, остров анонимности

Abstract: Lee Mun-yeol, who lived and worked in the 20th century, witnessed many events in the country's history: oppression by the authoritarian regime (Japanese annexation), ideological struggle (civil war), chaos (vacuum), and years of military rule. The chaos (vacuum) after the civil war, the military rule system created the ground for radical changes in social life and in the minds of the people. The 80s of the 20th century were the peak of military rule in Korean society, and the people were ready to fight for democracy - a new system. However, in a society accustomed to a certain system, disorder and apathy became the content of the lives of some young people.

Keywords: closed space, train, carriage, compartment, soldier, guard, orphanage, imaginary island

Kirish. Li Munyolning “Ustun va cho‘chqa” hikoyasi mamlakatda harbiy boshqaruv avj olgan yillari yozildi. Bosh qahramon Li atrofidagi voqelik aslida adibning mazkur davr vatan oldidagi burchini o‘tayotgan yoki o‘tagan yoshlari, ziyoli qatlami haqidagi qarashlari edi.

Yozuvchi shaxs erkinligi va huquqlarning buzilishini yopiq makon – harbiylar vagonida tasvirlaydi. Jamoaviy kuchga qarshi zaif inson harakatining chorasizligi, zo‘ravonlik mamlakat ijtimoiy hayotining ko‘rsatkichi sifatida ko‘rsatiladi. Vagon derazasi ortida esa hayot bir tekis va ravon kechayotgandek taassurot uyg‘otadi. Harakatlanayotgan poyezd tezligi – mamlakatdagi zo‘ravonlikning keskin tus olganiga ishora qiladi. Shu bilan birga poyezd doimiy harakatda bo‘lib, har bir bekat o‘z qurbonlarini qarshi oladi. Ma’lumki, yopiq makonda keskin harakat qilish, qarshilik ko‘rsatish imkoni chegaralangan. Yozuvchi yopiq makon va deraza ortidagi hayotning bir-birini inkor etishini, mo‘rtligini aks ettirish orqali davr muhitiga o‘z bahosini beradi.

Asosiy qism. Hikoya bosh qahramoni armiya hayotining jonli guvohi. Muddatli xizmatdan so‘ng uyiga qaytayotgan askarning poyezdda kechgan bir kunlik voqelikda mamlakatning mazkur davr armiyasidagi vaziyat, armiyada xizmat qilgan yoshlarning ma’naviy-axloqi, askarlik xizmatidan keyingi holat sarhisob qilinadi. Bosh qahramon hayotining birgina epizodida uning asl qiyofasi anglashiladi. Poyezdning bir vagonida “ma’naviy hordiq” uchun jamg‘arma uyga qaytayotgan askarlar uchun nafaqat ortiqcha xarajat, balki ramziy ma’noda jamiyatdagi g‘alayonlar, ruhiy zo‘riqlarning bir ko‘rinishidir.

Hikoya bosh qahramoni Li: *“U harbiy poyezdlardan yiroq bo‘lishga harakat qildi”*, ammo, *“O‘sha kuni u ketishdan oldin chidab bo‘lmas it turmushi poyoniga yetgani va nihoyat uyiga ketayotgani haqida o‘yladi”*. Narsalar solingan askar qopini joylashtirib, o‘zi ham endi o‘rindiqla o‘rnashgan bosh qahramon qulog‘iga tanish ovoz eshitildi: *“– Vagon o‘rtasida ketish – bu menga emas. Biror kor-hol ro‘y bersa, qochib ketolmaysan. Chekkada o‘tirish esa, ham shovqin, ham odamlar toptab tashlaydi...Mana bu (joy) ayni, ko‘ngildagidek!*

O‘zining vagon o‘rtasi haqidagi fikrlari boshqa bir shaxs tomonidan ochiq-oydin aytilishi Lining diqqatini tortdi. Aslida yozuvchi Lining ruhiyatidagi ichki kechinmalarini, ma’naviy olamini Xon obrazida boshqalarga oshkora qilayotganga o‘xshaydi.

Ma’lumki, zo‘ravonlik va jinoyat ishlari, qotillik, o‘zaro munosabatlarga oydinlik kiritib olish ishlari odatda yopiq joylarda sodir bo‘ladi. Muallif ham jamiyatda yoshlar o‘rtasida sodir bo‘layotgan nopok ishlarni ko‘rsatish uchun *makon* sifatida poyezd vagonini tanlaydi. Yopiq makon – poyezd shunchaki transport vositasi emas, balki mamlakatda sodir bo‘layotgan voqealar, tarixga aylanayotgan haqiqatdir. Poyezd detalida muallif mazkur davrning ijtimoiy holatini chizadi.

O'zbek adabiyotshunos olimi Abdulla Ulug'ov asosli ta'kidlaganlaridek: *“Ma'lumki, har qanday asarning barcha o'rinlari emas, balki voqealar keskinlashgan, to'qnashuvlar shiddatli tus olgan sahifalari kishini o'ziga ohanraboday tortadi. Oq qog'oz bag'riga bu ohanraboni joylashtirishdan mashaqqatliroq ish bo'lmasa kerak. Buning uchun, avvalo, voqealar kechayotgan zamon va makon manzarasini mahorat bilan chizib ko'rsatish, qahramonlarning xatti-harakati, turli kechinmalarini o'quvchi aniq his qiladigan darajada so'zlab berish lozim.*

Poyezd makonida asrlar davomida feodal tuzumga amal qilib yashagan, yopiq davlatda sodir bo'lgan tartibsizliklar xaos (bo'shliq) va harbiy boshqaruv davrida boshqa rakursda takrorlanayotganligi aks ettiriladi. Ayniqsa, vatan himoyasiga tayyorgarchilikdan o'tgan, ya'ni askarlik burchini o'tagan yoshlar o'rtasidagi bunday nopok ishlar har qanday insonni sergak torttiradi.

Tez harakatlanayotgan poyezd xuddi sodir bo'lishi aniq noxushlikni chekka hudud sari olib ketadi. Ijtimoiy zulm o'tkazayotgan bu askarlarning vagonga avval birin-ketin, keyin yoppasiga kirib kelishida ham yapon istilosining nafasi seziladi. Chunki yapon hukumati ham avval “homiylilik shartnomasi”ni taklif qilgan, keyin esa mamlakatni butunlay egallab olgan edi. Fuqarolar urushi davri ham shu tartibda boshlangan. Xalq endi harbiy boshqaruv davrining tartibsizliklaridan azob chekishga majbur. Askarlik xizmatidan qaytayotgan yigitlar bir vagonga ma'lum muddatga qamab qo'yilgan, vagonga kirib kelgan zo'ravonlarning ularga munosabati shunday tasvirlanadi:

“Kechirasizlar. Bir tangadan tashlang, aks holda bechora askarning ichishi uchun hech vaqosi yo'q. Biz tekinga ishlamaymiz! Nutq qat'iy edi”.

Aynan harbiylar chiqqan poyezd – harbiy boshqaruv davri ko'zgusi. Achinarli holat, bu yerda ziyolilar ham bor. Ammo ular jamoaviy kuchga qarshi tura olishmaydi. Bu holat Lining ichki monologida beriladi. Avval ichib olgan askarlarning so'zlaridan, xatti-harakatlaridan butun vujudini qaltiroq bosdi, keyin esa o'zi kabi xizmatni o'tab qaytayotganlarning sukut saqlab o'tirishlari, jimgina chaqa uzatishlari g'azabini qo'zg'atdi. O'z-o'zidan nafratlangan Lining xayolidan shu satrlar o'tdi: *“Mening qo'llarim kalta, mening ovozim sassiz, qalbim zaif. Bunday shavqatsizlikka qarshi turishga kuchim yetmaydi, aybdorlikka o'rganib qolgan o'rtoqlarimni ortimdan ergashtira olmayman”.*

Mamlakat ahvoli yopiq makonda tasvirlanar ekan, muallif “Qaddi bukik qahramonimiz” hikoyasidagi maktab o'quvchilariga nisbatan zo'ravonlik masalasini aynan kuchga to'lgan, shijoatli yoshlar o'rtasida ko'rsatadi. Maktab o'quvchisi o'qituvchisidan madad kutgan edi, askar esa shu onda temiryo'l xavfsizligini ta'minlovchi pospon yoki harbiy patrulning yo'qligiga e'tibor qaratdi.

Uning xayolidan o'tgan gaplar yana Xonning tilidan yangradi: *“Nima, bu vagonda qo'riqchi yo'qmi?”*

Muallif *qo'riqchini* eslash orqali, mamlakatdagi tartibsizliklar uchun mas'ulning (bu yerda harbiy boshqaruv davrida davlatni boshqargan prezident nazarda tutilgan) o'z vazifasini bajarmayapganligini ta'kidlaydi. Bu vagonda ketayotgan ozg'in askarning zo'ravonlarga qarshi javobi kiritilgan epizodda yanada chuqurlashadi. Yuz von berishdan bosh tortgan askar zo'ravonlar tomonidan ayovsiz kaltaklanadi.

Harbiy rejim sabab siyosiy va ijtimoiy tartibsizlik avj olgan davrda begunoh insonlar duch kelgan bunday to'qnashuvlar zo'ravonlar hisobiga hal qilinardi. Li chiqish eshigiga tikilib o'tirardi, temiryo'l xavfsizligi posponi yoki harbiy patrulni kutardi. Ammo ular qonun va tartib kabi ancha olisda edilar. Hikoyada qalamga olingan voqealar harbiy boshqaruv davrining eng murakkab muammosi bo'lib, qahramonlarning chigal taqdiri kitobxonni o'ylantiradi. Li kabi ziyoli va unga qarama-qarshi qo'yilgan Xon kabi obrazlarda harakatsiz insonlarning mamlakat taqdiriga befarqliklari, oddiy ozg'in askar kabi zo'ravonlikka qarshi tura olmasliklari, hatto uni himoya qilishga ojizliklari muallifning qalb tug'yoni, tashvishlari, hasratlaridir.

Hikoyaga kiritilgan obrazlarni shartli ravishda uch toifaga ajratish mumkin: birinchisi, “qora shapkalilar” tarzida berilgan zo'ravonlar bo'lib, aslida ular haqiqiy jinoyatchi emas, balki harbiy boshqaruv tizimining ko'zgudagi xira ko'rinishdagi aksidir. “Qora shapkalilar” kichik bir guruh, to'da bo'lib, mana shunday mayda zarralar harbiy boshqaruv tizimiga xizmatda. Ikkinchi, Li kabi befarq, loqayd insonlar guruhi bo'lib, ular uyushgan jinoyatchilardan ham xavflidir. Uchinchi, ozg'in askar obrazidagi insonlar amalda ishlamayapgan qonun va tartibsizlik qurbonlaridir.

Li Munyol o'z davri kishisining turli obrazlarini yaratishda, ularning ichki olamini ochib berishda mamlakatda sodir bo'lgan real voqealar bilan birga xotiralardan o'rinli foydalanadi. Harbiy tuzum hukmronligi yillarida mehribonlik uyida tarbiyalangan o'qituvchi Kim va oilali begona erkakning tasodifan poyezdning bir kupesida hamroh bo'lishi voqeasi “Nazaretni eslaysizmi?” hikoyasida o'z aksini topadi. Kupedagi uchrashuv hikoya tuguni, o'qituvchi Kimning begona erkakni savollarga ko'mib tashlashi, o'tmish xotiralarini yodga solishi asarning avj nuqtasidir. Tashqariga chiqib kelish bahonasida so'nggi chora – o'zini poyezd g'ildiraklari ostiga tashlab, o'lim topgan erkakning xatti-harakati hikoyaning yechimi hisoblanadi.

“Ustun va cho'chqa” hikoyasida yopiq makon – vagon, “Nazaretni eslaysizmi?” hikoyasida kupe tarzida beriladi. Vagon, kupe kabi yopiq makonga muallif o'zining davr zo'ravonliklari haqidagi fikrlarini to'laligicha singdira olgan. Muallif dastlab Kim, oilasi bilan birga begona erkak, barcha voqelarga guvoh bo'lgan bosh qahramonni bir kupega joylashtiradi. Adib sodir bo'lishi

kutilayotgan voqealardan oldin barchani o'tmishga qaytarish, xotiralarni yodga solish maqsadida kupega yig'ilgan erkaklarning may ichish epizodini kiritadi. May ichish holati sodir bo'ladigan fojia – erkakning o'z joniga qasd qilishini ta'minlagan.

Ziddiyatli davr ishtirokchisi sifatida adib “Yosh yigit portreti” hikoyasida yoshlarning zohidlik yo'liga kirish sabablarini ochib beradi, muallif obrazida sarson insonning iztiroblarini yoritadi. Li Munyol chizgan qahramon portreti olim M. Sultonovning: *“Personaj holatini, muayyan daqiqadagi kayfiyatini so'z bilan emas, balki ko'rinishi, qiyofasi bilan ifodalash ahamiyat kasb etadi”* fikriga mos keladi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bu insonni har doim salbiy xususiyatlari orqali esga olishgan. Ko'z qiyig'i, o'tda kuygan bukilmas chap qo'li xuddi tanasiga yovuz ruh tanda qo'ygan kabi taassurot uyg'otuvchi ruhoniylar har doim noxush kayfiyatga sabab bo'lardi: *“Nafaqat ojizlar, balki qalbi o'ksik yuzlab tarbiyalanuvchilar ustidan doimiy nazorat o'rnatgan bosh ruhoniylar, o'ylab ham o'tirmasdan qattiq haqorat qilardi...Hatto ayoli tashlab ketgan bu bo'ydoq, bukchayib, xuddi butun bashariyatning gunohi uchun tavba qilgandek, o'z istig'rofini juda ham uzoq o'qirdi”*.

Mehribonlik uyi ham adib tanlagan yopiq makonlardan biri hisoblanadi. Xuddi mustabid tuzum hukmronligi davrida o'zlarining qora ishlarini berkitishga harakat qilayotgandek taassurot uyg'otadigan bosh ruhoniylar, asl qiyofasi noma'lum U (begona erkak) o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatga tasodifan guvoh bo'lgan bosh qahramon yillar davomida bu chigal masalaning mohiyatini anglab yeta olmadi.

Xulosa. Munyol koreys xalqi tarixida turg'unlik davrini yopiq makon – poyezd detalida, mehribonlik uylarida tasvirlaydi. Adibni iqtisodiy yuksalish, texnika taraqqiyoti yuqori cho'qqiga chiqqan bir paytda yo'qolib borayotgan diyonat, e'tiqod, loqayd kabi masalalar bezovta qiladi. Davrning mudhish manzaralari ildizlari esa – o'tmishga, tarixga, jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan tashqi va ichki omillarga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Li Munyolning badiiy maqsadi, konsepsiyasi o'ta murakkab, uni tushunish uchun kitobxondan yuksak estetik did, koreys jamiyatining tarixi, madaniyatidan bilimlari chuqur bo'lishi talab qilinadi. Shuningdek, hikoyalari uchun tanlangan obrazlarda o'ziga zamondosh shaxs siymosini chizadi, uning ruhiy olamini, muammolarini inson hayotining azaliy mezonlari asosida chizadi. Hayotiy voqeani badiiylashtirishda oddiy narsalarni tasvir markazida ushlagan muallif o'z mushohadalarini kitobxonga yetkaza olgan.

Adabiyotlar:

1. Султонова М. Ёзувчи услубига доир (Ойбек, А. Қодирий, А.Қаҳҳор ва С. Аҳмад прозаси асосида). – Тошкент. “Фан” нашриёти. 1973. – Б. 26.

2. Улугов А. Замон ва макон мусаввири. Шарқ юлдузи (Адабий-бадий, илмий, ижтимоий-сиёсий журнал). 2015. №3 сон. – Б. 194.

3. 이문열, 팔론과돼지, 알에이차코리아, 2021.

ЛИ САН – ЯРКИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ КОРЕЙСКОГО МОДЕРНИЗМА

Шин Виктория

Ташкентский государственный университет востоковедения, Ташкент, Узбекистан

Email: shinviktoriya94@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif XX asrning birinchi yarmidagi zamonaviy modernistik adabiyotning yorqin vakili Li Sanning shaxsini ochib berishga harakat qildi. Modernizm tadqiqotchilari kim girim va kim Yunsikning nazariy qarashlari asosida Li Sanning ijodiy individualligi konsepsiyasi ko'rib chiqildi; "hendethan kompleksi" atamasining ma'nosi ochib berildi. "Qanotlar", "uchrashuv va ajralish, "hayot bilan xayrlashish to'g'risida yozuv" asarlari misolida avtobiografik rejaning hikoyalari muammolari aniqlandi.

Kalit so'zlar: modernist adabiyot, zamonaviy hayot, kim Yunsik tushunchasi, kim girim, "hendethan kompleksi", inson taqdiri, avtobiografik hikoyalar.

Аннотация: В данной статье автором предпринята попытка раскрыть личность Ли Сана - яркого представителя современной модернистской литературы первой половины XX века. На основе теоретических воззрений исследователей модернизма Ким Гирима и Ким Юнсика рассмотрена концепция творческой индивидуальности Ли Сана; раскрыто значение термина «хёндэтхан комплекс». На примере произведений «Крылья», «Встреча и расставание», «Запись о прощании с жизнью» выявлена проблематика рассказов автобиографического плана.

Ключевые слова: модернистская литература, современная жизнь, концепция Ким Юнсика, Ким Гирим, «хёндэтхан комплекс», судьба человека, автобиографические рассказы.

Annotation: In this article, the author makes an attempt to reveal the personality of Lee San, a prominent representative of modern modernist literature of the first half of the XX th century.

Based on the theoretical views of modernism researchers Kim Girim and Kim Yunsik, the concept of creative individuality of Lee San' s considered; is revealed meaning of the term "Hyundai vehicle complex". Using the examples of the works "Wings", "Meeting and Parting", "Record of Farewell to Life" are revealed the problems of autobiographical stories.